



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO
HAMKORLIK MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari**



**2023-yil
19-oktabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI”**

**mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari**

2023-yil 19-oktabr

Toshkent – 2023

7. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 96 б
8. Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С. 603.

BOLALAR NUTQIDA KONNOTATSIYANING LEKSIK-SEMANTIK USULDA HOSIL BO‘LISHI

FORMATION OF CONNOTATION IN CHILDREN’S SPEECH LEXICAL-SEMANTIC METHOD

Qurbonova Munavvara *

***Annotatsiya:** Maqola nutq birliklarining pragmatik talqiniga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bolalar tomonidan leksik vositalar orqali konnotativ ma‘noning ifodalanishi xususida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** pragmatika, konnotatsiya, leksema, bolalar nutqi, bo‘yoqdor so‘z*

***Abstract:** The article is devoted to the pragmatic interpretation of speech units, in which children express connotative meaning through lexical means.*

***Key words:** pragmatics, connotation, lexeme, speech of children, colorful word*

Nutq birliklarining pragmatik tadqiqida konnotativ ma‘no ifodalovchi birliklar muhim o‘rin tutadi. Konnotativ ma‘no, ayniqsa, leksemalarda yorqin ko‘zga tashlanadi. Tilning leksik tizimida sinonimik, antonimik, omonimik munosabatdagi leksemalar, polisemantik so‘zlar, okkazionalizm, dialektizm, vulgarizm, bo‘yoqdor so‘zlar nutqning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi faol birliklar hisoblanadi. Shuningdek, eskirgan so‘zlar va neologizmlar ham o‘rni bilan nutqiy konnotatsiyani hosil qilishda ishtirok etadi.

O‘zbek tilidagi ayrim leksemalar denotativ ma‘nosidan tashqari, til egasining voqelikka munosabati, his-tuyg‘ularini ham aks ettirishi jihatidan ajralib turadi. Leksemaga xos bunday qo‘shimcha ma‘nolar ham konnotatsiyaning o‘rganish obyekti sanaladi.

A.Sobirov leksik birliklardagi konnotativ ma‘noni leksik ma‘noning vazifasiga ko‘ra bir turi deb hisoblaydi. [Sobirov, 2004: 51]. E.Qilichev, B.Qilichevlar konnotativ ma‘noning (K) so‘z semantikasidan (S) denotativ ma‘no (D) ajralgandan keyin hosil bo‘lgan ayirmaga, ya‘ni, $K = S - D$ ga tengligini ko‘rsatdilar. [Qilichev, Qilichev, 2006: 68].

A.Haydarovning qayd etishicha, “Konnotatsiya til va nutq birliklari ma‘no tarkibining ajralmas qismi bo‘lib, ular ifodalagan asosiy denotativ ma‘noni to‘ldiradi va turli darajada qo‘shimcha emotsional-ekspressivlik hosil qiladi”. [Haydarov, 2009: 16].

Konnotatsiyani E.Vohidov asarlari misolida o‘rgangan S.Maxsumova esa unga quyidagicha ta‘rif bergan: “... konnotatsiya denotativ ma‘no ustiga qurilib, unga qo‘shimcha ma‘no (ekspressiv-emotsional ma‘no) yuklovchi hamda nutq subyekting voqelikka baho munosabatini ifoda etishga xizmat qiluvchi tilning semantik-pragmatik aspektidir”. [Maksumova, 2012: 15].

Konnotatsiyaga berilgan tavsif va ta‘riflardan ma‘lum bo‘ladiki, tilshunoslikda konnotatsiya tushunchasi tor va keng ma‘nolarda talqin etilgan. Ayrim tilshunoslar til birligiga xos stilistik belgini ham konnotatsiyaga kiritishsa, ba‘zilar til birliklari orqali ifodalangan baho munosabatini ham konnotatsiya doirasida o‘rganishgan. Bizningcha, til birligining stilistik belgisi hamda nutq jarayonida baho munosabatini ifodalashini konnotatsiya doirasida o‘rganish unchalik to‘g‘ri emas. Albatta, konnotatsiyaning voqelanishida til birligining stilistik belgisi

* Filologiya fanlari doktori, professor. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-pochta: munavvara2013@yandex.ru

ahamiyatli. Konnotatsiyada til birligining emotsionallikni ifodalovchi stilistik bo‘yog‘i muhim o‘rin tutadi. Bu jihat konnotatsiya va stilistikaning ba‘zan bir nuqtada kesishuvini ko‘rsatadi. Ammo til birligining stilistik birlik sifatidagi maqomi konnotatsiyaga daxldor emas. Shuningdek, til birligi stilistik belgiga ega bo‘lmagan holatda ham konnotativ ma‘noga ega bo‘la oladi.

Bolalar nutqida konnotativ ma‘no juda ko‘p hollarda ekspressiv-emotsional bo‘yoqqa ega so‘zlar orqali hosil qilinadi. Ekspressiv-emotsional bo‘yoqdor so‘zlarning qo‘llanishi nutqning ta‘sirchanligini yanada oshiradi. Masalan:

1. *Bizni ikki kundan buyon sargardon qilgan **tentak** sigirni so‘yib, uning go‘shidan ko‘targanimizcha olib, shuni sotib tirikchilik qilmoqchi bo‘ldik.* (G‘.G‘ulom. “Shum bola”)

2. – *Gapirma, **tekinxo‘r, daydi!***

– *Hali man sanga **tekinxo‘r, daydi** bo‘ldimmi? Unda o‘zing kimsan?* (Sh.Abbosov, A.Naumov. “Shum bola” kinofilmidan)

3. – *Qaerda yuribsan, daydi? – O‘zing **daydisan!*** (Aziz Aliyev, 10 yosh)

Ko‘rinadiki, berilgan misollarda *tentak, tekinxo‘r, daydi* bo‘yoqdor so‘zlari yordamida nutqning ta‘sirchanligiga erishilgan.

Bolalar nutqida bo‘yoqdor so‘zlarning faol qo‘llanishida ijtimoiy muhitning ahamiyati kattadir. G.Iskandarova bu haqda shunday yozadi: “...bolaga ota-onasidan ham ko‘proq diqqat-e‘tibor, mehr-muhabbat beruvchi inson – bu uning bobo va buvisidir. Ular nevarasiga juda ko‘p erkalatuvchi so‘zlar bilan muomala qiladilar, ayniqsa, buvilar. Shuning uchun buvi va buvasi bilan birga o‘sgan bola nutqida buva va buvisi bo‘lmagan yoki ulardan uzoqroqda yashovchi, juda kam ko‘rishuvchi bolalar nutqi qiyosida o‘ziga xosliklar seziladi: birinchi holatda bolalar o‘z nutqida ko‘plab emotsional-ekspressiv bo‘yoqdagi so‘zlarni qo‘llaydilar: “asalim”, “oyijonim”, “adajonginam”, “opoqoyijon” va h.k. Ikkinchi holatdagi bolalar nutqida bunday xususiyat nisbatan kam uchraydi”. [Iskandarova, 2003: 86-87].

Anglashiladiki, bolalar nutqida ekstralingvistik omillar ta‘sirida yuzaga chiqadigan pragmatik konnotatsiyani tadqiq etishda tadrijiylik tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiq.

Shunisi qiziqki, bolalar nutqida ekspressiv-emotsional bo‘yoqqa ega bo‘lmagan ayrim so‘zlar ham ba‘zida konnotativ ma‘noni ifodalaydi. So‘zni bunday maqsadda qo‘llashda bolaning olamni qay tarzda tasavvur etishi va uni tilga ko‘chirishi muhim o‘rin tutadi. Bu holat, ayniqsa, badiiy matnda yorqin ko‘zga tashlanadi. Masalan, “*Bu erda ishlarimiz juda **gumbur bo‘lib ketdi***” (X.To‘xtaboyev. “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi”) gapida qo‘llangan *gumbur bo‘lib ketmoq* leksemasi rivojlanish harakatini obrazli va ta‘sirchan ifodalab, konnotativ ma‘noni hosil qilgan. Bu leksemaning konnotativlikni hosil qilishida bolaning voqelikni idrok etishi va uni bolalarga xos tarzda bo‘rttirib aks ettirishi muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga, bu leksema orqali nutq egasining voqelikka ijobiy bahosi ham ifodalangan.

Badiiy matnda bola nutqida qo‘llangan quyidagi antonimik juftlik ham konnotatsiya ifodasi uchun xizmat qilgan. Masalan:

*Mahsi kiygan **semiz-oriq** oyoqlar orasidan emaklab o‘tib, popukqandlar, tangalarga yopishdim.* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”)

*Ziyoratgoh bugun ziyoratgoh emas, bamisoli katta bir saylning o‘zginasi bo‘libdi – odam demagani hech joyga sig‘maydi: **oriq-semiz** xotinlar, **uzun-qisqa** kampirlar, men tengi bolalardan tortib Donoxon tengi qizlargacha, dadamga o‘xshash erkaklardan tortib Yong‘oq qori pochchamdek salla o‘ragan, ikki beti qip-qizil chollargacha – hamma-hammasi shu erda...* (X.To‘xtaboyev. “Sariq devni minib”)

E‘tibor berilsa, bola nutqida qo‘llangan *semiz-oriq, oriq-semiz, uzun-qisqa* antonimik juftliklari ifodada obrazlilikni va ta‘sirchanlikni ta‘minlashga xizmat qilgan.

Ko‘chma ma‘noli so‘zlar nutqning ta‘sirchanligini ta‘minlovchi vositalardir. Ayniqsa, bolalar adabiyotida ulardan foydalanish nutqning konnotativ xususiyatini yanada kuchaytiradi. Quyidagi misollarni tahlil qilamiz:

1. *Nima ham derdim, Bunday **nordon** gaplarga tishni-tishga qo‘yib bardosh berishga to‘g‘ri keladi.* (Yo.Xo‘jaev. “Alomat bolaning sarguzashtlari”)

2. **Qorindor**, sariq samovar burchakda turadi. (O'.Hoshimov. "Ikki eshik orasi»)

3. *Boyagidan ham qattiqroq kulgi portlaydi. Choyxo'rlar biri tizzasiga shapatilab, biri qornini ushlab xoxolashadi. Dadam tizzasiga urmaydi. Tizzasida men borman.* (O'.Hoshimov. "Ikki eshik orasi")

4. *Osmonni bulut qoplagan, parkdagi karnaydan eshitilayotgan yig'loqi muzika yanayam kuchaygan edi.* (O'.Hoshimov. "Ikki eshik orasi")

Berilgan misollarda *nordon*, *qorindor*, *portlamoq*, *yig'loqi* so'zlarining ko'chma ma'noda qo'llanishi ifodada obrazlilikni hosil qilgan, natijada matnning ta'sirchanligi ortgan. Bu o'rinda shuni ham qayd etish lozimki, badiiy matnda qo'llangan *nordon gap*, *qorindor samovar*, *kulgi portlaydi* tarzidagi o'ziga xos metaforik qo'llanishlar bolalargagina xos bo'lib, nutqning ijtimoiy xoslanishidan darak beradi.

Bolalar muloqot jarayonida o'xshatishga asoslangan nomlardan keng foydalanadilar. Bunday nomlar nutqning ta'sir kuchini oshirib, konnotatsiya uchun xizmat qiladi. Masalan:

"Tuya" amakini Abduvalidan ham yomon ko'raman. (O'.Hoshimov. "Ikki eshik orasi")

Maktab yoshidagi bolalar leksik tizimiga xos xususiyatlardan yana biri unda o'ziga xos okkazional birliklarning mavjudligidir. Laqab bolalar tomonidan juda faol ishlatiladigan okkazional birlik bo'lib, nutqning ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan:

Rostini aytsam, ilonboz Samovar yaxshi bola ekan. Xuddi qishloqdagi o'rtog'im Mahmudxonga o'xshab ketarkan. (X.To'xtaboyev. "Besh bolali yigitcha")

Laqablar orqali bolalar nutq obyektiga nisbatan subyektiv munosabatlarini ham ifoda etadilar. Ma'lumki, baholash jarayonida nutq egasi obyektini o'z o'lchovi asosida baholashga harakat qiladi. Garchi har bir ijtimoiy muhitda baholashning umum tomonidan qabul qilingan o'lchovi shakllangan bo'lsa-da, nutq egasi ko'pincha o'z o'lchovi orqali subyektiv munosabatini ifoda etishga urinadi. Ayniqsa, bu holat bolalarda o'ziga xos tarzda kechadi. Kattalardan farqli tarzda bolalar uchun umum tomonidan qabul qilingan o'lchov me'yorlari noodatiy, hali o'zlashtirilmagan bo'lgani bois ularning obyektini baholovchi o'z o'lchovlari mavjud bo'ladi. Quyidagi misolda bolalarning laqablar vositasida baho munosabati (salbiy munosabat)ni ham ifoda etishi yaqqol ko'zga tashlanadi:

Past mahalla bolalari o'sha zahotiyoyq bizning brigadamizga "Afandichilar" deb laqab qo'yibdi. Biz ham qarab turmadik. Turon amakimning musallas ichsa yig'laydigan odati bor edi. SHuni hisobga olib, ularga ham "Yig'loqilar" deb laqab qo'ydik. (X.To'xtaboyev. "Besh bolali yigitcha")

Bolalar nutqida qo'llangan laqablar, dialektizm, vulgarizmlar ham, garchi adabiy til me'yorlaridan chekinish bo'lsa-da, nutqning ta'sir kuchini oshirishga hamda nutq egasining baho munosabatini ifoda etishga xizmat qiladi.

Rang-qutim o'chib ketdi. Nega desangiz, ishning bu yog'i sal ishkalroq edi-da! (X.To'xtaboyev. "Sariq devni minib")

O'qdek uchib borib, quvlab borayotgan odamning elkasiga tirmashdim. Ikkovimiz guppang bo'lib, erga yiqildik. (X.To'xtaboyev. "Besh bolali yigitcha")

Hammasi yovvoyi odamga o'xshaydi-ku! – nordon narsa chaynab olgandek aftini jiyirib dedi Qoravoy. (X.To'xtaboyev. "Besh bolali yigitcha")

– *E yo'q dema, galvars... Buvimlayam unga yuraklarini ochib-sochalla.* (R.Muhammadjonov. "Suyunchi")

Maktabgacha yoshdagi bolalar leksemani o'ziga xos bo'lmagan nutq ko'rinishida qo'llash orqali ham ta'sirchanlikka erishib, nutqiy konnotatsiyani yuzaga keltiradilar. Masalan:

Qo'lim yaradorligi paqqos esimdan chiqib ketgan ekan. (O'.Hoshimov. "Ikki eshik orasi")

Bolalar nutqida qo'llangan frazeologizmlar ham ifodaning ta'sirchanligi, obrazliliigi, ma'noning bo'rtirilishi kabilar uchun xizmat qiladi. Qiyoslang:

Bu yil meva-chevani burnimizdan chiqquncha er ekanmiz deb o'yladik-u, hammamiz ham o'zimizda yo'q xursand bo'lib ketdik. (X.To'xtaboyev. "Besh bolali yigitcha")

Sumkamni olib, quyon rasmini chizdim. (Sardor Olimov, 13 yosh)

Papkani ko 'tarib, sekin quyon bo'lib qolaman. (X.To'xtaboyev. "Sariq devni minib")
Bola nutqida qo'llangan quyidagi okkazional frazeologizm jismoniy holatni bo'rttirib ifodalashga xizmat qilgan:

O'pkamni qo'litiqlab redaksiyalardan biriga qarab yugurdim. (X.To'xtaboyev. "Sariq devni minib")

Ushbu misolda qo'llangan fiziologik holatning nutqiy ifodasi sifatida yuzaga kelgan obrazli tafakkur mahsuli harakatning yuqori darajadagi tezlikda bajarilganiga ishora qiladi. Shu bois berilgan matnda bola nutqida qo'llangan *o'pkani qo'litiqlab yugurmoq* iborasini *oyog'ini qo'liga olib yugurmoq* iborasiga semantik jihatdan muqobil kelgan deyish mumkin.

Leksik birliklar takrori konnotativ ma'noni hosil qiluvchi pragmatik vosita sifatida, ayniqsa, bolalar nutqida ko'p kuzatiladi. Bolalar nutqida leksik birliklar takrorining turli ko'rinishlari aks etadi. Ko'pincha takror yordamida ta'kidni kuchaytirish asosida nutqning ta'sirchanligi ta'minlanadi. Masalan:

Oyim bir zum supa oldida turdi-turdi-da, birdan menga o'shqirdi. (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari")

Ishonsangiz, shu paytda juda, juda ham xursandman. Bolalarning oldida sakrab-sakrab o'yinga tushvoray-tushvoray deb yugurib kelyapman. (X.To'xtaboyev. "Besh bolali yigitcha")

Oh, qatlamani men biram yaxshi ko'ramanki, qaymoq solib pishirilsa, sal-pal so'lqillab tursa, lo'm-lo'm qilib eyishni yaxshi ko'raman. (X.To'xtaboyev. "Jannati odamlar")

Ukalarimning yoniga yig'lavoray-yig'lavoray deb qaytdim. (X.To'xtaboyev. "Besh bolali yigitcha")

Bo'g'irsoq tez-tez dumalab-dumalab tulkidan qochib ketibdi. (Malika Davronova, 4 yosh)

Xullas, bolalar nutqda konnotatsiyani hosil qilishda ko'chma ma'noli so'zlar, sinonimik, antonimik munosabatdagi leksik birliklar, dialektizmlar va frazeologizmlardan unumli foydalanadilar. Bolalar tomonidan leksik birliklar orqali ifodalangan konnotativ semalar ular nutqining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 159 б.
2. Қиличев Э., Қиличев Б. Коннотатив маъно ва унинг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – №6. – Б. 68-71.
3. Хайдаров А. Коннотатив маънонинг фонетик воситаларда ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 21 б.
4. Максумова С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 150 б.
5. Искандарова Г. Бола нутқий фаолиятида ижтимоий муҳитнинг аҳамияти / Ўзбек тилшунослиги масалалари: Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: ЎЗМУ, 2003. – Б. 86-87.